AJAL QIYOFASIDAGI AYOL
(Zulfiya Qurolboy qizi hikoyasi tahlili misolida)

Kamola Egamberdiyeva,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Namangan davlat universiteti doktoranti, dotsent v.b.
ORCID: 0009-0005-3363-280X
e-pochta: kamolaegamberdiyeva18@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19956841

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining iste'dodli vakili Zulfiya Qurolboy qizining "Ajal chorlovi" hikoyasi badiiy tahlil qilingan. Maqolada adibaning o'ziga xos ifoda uslubi, qahramon ruhiyatidagi evrilishlar va tasvirdagi shafqatsiz reallik masalalari tadqiq etiladi. Asosiy e'tibor Mulla Ashur obrazi orqali insonning ichki kechinmalari, farzandsizlik dardi va ilohiy qonuniyatlar o'rtasidagi kurashga qaratilgan. Shuningdek, yozuvchining mistik va realistik tasvir usullari uyg'unligi, ayol qiyofasidagi ajal motivi hamda personajlar xarakterini ochishdagi mahorati yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Zulfiya Qurolboy qizi, "Ajal chorlovi", badiiy uslub, psixologizm, Mulla Ashur, farzandsizlik motivi, mistika, realistik tasvir, ayol obrazi, ajal.*

Аннотация. *В данной статье анализируется рассказ «Зов смерти» талантливой представительницы современной узбекской литературы Зульфии Куролбой кизи. Исследуются особенности стиля письма автора, психологические трансформации героя и вопросы суровой реальности в изображении. Основное внимание уделено внутренним переживаниям, боли бездетности и борьбе между человеческими желаниями и божественными законами на примере образа Муллы Ашура. Также освещаются сочетание мистических и реалистических методов изображения, мотив смерти в образе женщины и мастерство автора в раскрытии характеров персонажей.*

Ключевые слова: *Зульфия Куролбой кизи, «Зов смерти», художественный стиль, психологизм, Мулла Ашур, мотив бездетности, мистика, реалистическое изображение, образ женщины, смерть.*

Abstract. *This article provides an artistic analysis of the short story "The Call of Death" by Zulfiya Kurolboy qizi, a talented representative of modern Uzbek literature. The article examines the author's unique narrative style, psychological transformations of the protagonist, and issues of harsh reality in depiction. Central focus is placed on the inner experiences, the pain of childlessness, and the struggle between human desires and divine laws through the character of Mulla Ashur. Furthermore, it highlights the harmony of mystical and realistic descriptive methods, the motif of death in the guise of a woman, and the author's mastery in revealing character traits.*

Keywords: *Zulfiya Kurolboy qizi, "The Call of Death", artistic style, psychologism, Mulla Ashur, motif of childlessness, mysticism, realistic depiction, female image, death.*

Kirish. Zamonaviy o'zbek adabiyotida ko'p yillar mobaynida davom etib kelayotgan bir qancha qahramonlar mavjud, ijodkorlar o'z hikoyalarida ayollar olamini inson hayoti bilan bog'lab, ular orqali chuqur falsafiy fikrlarini ifoda etganlar va ayollarni tasvirlashda nihoyatda nozik badiiy did va ramziylikka tayanib boradilar. Shuningdek, asosan, ular ayol tabiatidan tashqari uning ruhiyati, ichki olami, ijtimoiy

va faslafiy g‘oyalarni hamda davr muammolarini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Hikoyanavislar odatda o‘z hikoyasida ayol tabiatidagi o‘ziga xosliklardan xususan, ayol borlig‘i, erkaklarda ucharamaydigan xarakteri, ruhiy olami va taqdir bitigidagi evrilishi tavirlaridan o‘rinli foydalanadi. Bu tasvirlar orqali har bir davrlarda ayollarning dardini yoki holatlarini ifodalab berishi osonroq kechgan. Ayrim hikoyanavislar ayol taqdiridan ta’sirlanib, o‘z hikoyalarida ayol ruhiyatini ochib beruvchi tasvirlardan foydalanishgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida ayollar tasviri, xususan, ayol qismati qadimdan badiiy obraz yaratish, ruhiy holatni ifodalash va falsafiy mushohadalarni ifodalashda muhim vosita bo‘lib kelgan. Zamonaviy adabiyotda ayol ko‘pincha hayotning muayyan bosqichi, insonning pirovard yo‘li, vaqtning o‘tkinchiligi ramzi sifatida talqin qilingan. Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi, Jamila Ergasheva, Lobar Rustamova, Ma’mura Zohidova, Tillaniso, Nodirabegim Ibroximova, Raxshona Axmedova singari ijodkorlarning hikoyalarida ayol obrazlari ruhiy kechinmalar, qismatning bitigi va hayot falsafasi bilan uyg‘un holda yoritiladi.

XXI asr o‘zbek hikoyachiligida ayol obraziga murojaat qilish an’anasi davom ettirildi. Adibalar ijodida ayol ruhiyati, kechinalari mavzusi muallifning o‘z davridan kelib chiqqan ruhiy iztiroblari, tashvishlari va umidlarini ifodalashga xizmat qildi. Ayniqsa, Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ayol obrazlari ruhiy tushkunlik, armon va ichki iztiroblar bilan bog‘lanadi.

Mustaqillik davri hikoyalarida esa ayol tasviri qahramonning falsafiy mushohadalari, ruhiy o‘zgarishlari va shaxsiy kechinmalarini ifodalashda yangicha badiiy mazmun kasb etdi. Tillaniso, Nodirabegim Ibroximova, Raxshona Axmedova kabi hikoyanavislarning asarlarida ayol qismati va ruhiyatining badiiy talqini insonning ichki dunyosi, ijtimoiy-milliy ruhiy kechinmalari bilan uyg‘unlashadi. Adabiyotlarda ayol tasvirining ko‘p qirraligi, uni ruhiyati bilan bog‘lash o‘zbek hikoyachiligining asosiy estetik xususiyatlaridan biri sifatida tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan. Bunda ayol qismati orqali uning ruhiy olami, falsafiy qarashlari, hayotiy izlanishlari badiiy obraz darajasiga ko‘tarilganini kuzatish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda adabiyotshunoslikning qiyosiy-tipologik, struktur-semantik, poetik tahlil metodlari asosiy yondashuv sifatida qo‘llanadi. Qiyosiy-tipologik tahlil orqali zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida ayol obrazining talqini qiyoslanadi, turli ayol hikoyanavislarda bu obrazning ruhiy-falsafiy mazmun kasb etishi ochib beriladi. Struktur-semantik metod yordamida ayol tasvirining badiiy vositalar (epitet, metafora, ramz, peyzaj) orqali ifodalanishi,

ularning mazmuniy qatlamlari hamda ayol ruhiyati bilan bog‘liqligi tadqiq qilinadi. Poetik tahlil metodologiyasi asosida esa ayol obrazining badiiy-estetik vazifasi, uning ayol kayfiyati va ruhiy kechinmalarini ifodalashdagi o‘rni yoritiladi. Zaruratga ko‘ra, intertekstual tahlil yondashuvi ham qo‘llanib, ayol tasvirining jahon hikoyachiligidagi o‘xshash talqinlari bilan qiyosiy o‘rganilishi mumkin.

Metodologik yondashuvlar uyg‘unligi ayol obrazining zamonaviy o‘zbek hikoyachiligidagi o‘rni, uning ayol ruhiy olamidagi badiiy ifodasini yanada mukammal tahlil qilish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Ma’lumki, yozuvchi badiiy niyatini amalga oshirish uchun tanlagan yo‘l uning uslubi hisoblanadi. Masalan, oshni birov qo‘lda yeydi, birov qoshiqda, birov issiq, birov sovuq yeyishni yoqtiradi va h.k. Shu jihatdan olib qaralganda Zulfiya Qurolboy qizi ifoda uslubida shafqatsizlik aralash o‘ta haqqoniy tasvir yetakchilik qiladi. Albatta, adibaning barcha ijod namunalari “**Ayol**” va “**Ajal chorlovi**” hikoyalari kabi to‘la, boshdan-oyoq shu yo‘sinda bitilgan emas. Ammo ularning barchasida, hech bo‘lmaganda bitta qahramon yoki biror badiiy lavha real hayotning o‘zi kabi shafqatsiz tusga ega.

So‘nggi yillarda milliy, diniy qadriyatlar, uzoq taraqqiyot davrida ajdodlardan o‘tib kelgan qator tushuncha va qarashlar yangicha shaklda jonlana boshlandi. Shu tariqa badiiy asarlarda ham ayol obrazi mustaqillik yillarida yangicha konseptual nuqtayi nazardan aks ettirila boshlandi. Zero, “hayotning kelib chiqishi va tugab bitishi sabablari, hatto ayollar hayotining chiqib kelish sabablari ham teran bir sirga chulg‘angan. Shu sirni tan olish, e’tirof etish borliqqa muayyan ulug‘vorlik baxsh etadi”[8.46]. Demak, zamonaviy o‘zbek adabiyotida hikoyaning badiiy aks ettirilishi avvalgi davrdagilardan farq qiladi.

Zulfiya Qurolboy qizining “Ajal chorlovi” hikoyasi syujet-kompozitsion qurilishi, obrazdagi biroz g‘ayritabiiylik qahramon haqidagi qarashlar tizimi o‘zgarganiga yaqqol misol bo‘la oladi[11.65-78]. Asar boshidayoq Mulla Ashur timsolida ko‘pchilik kitobxonlar odatlangan odam emas, tamomila o‘ziga xos shaxs qiyofasini shakllantirishga harakat qilingan: “Mulla Ashur qishloqning nafasi o‘tkir duoxoni edi. Murid-u muxlislari ko‘p edi. Dami o‘tkirligidan odamlar orasida, har xil shov-shuvli mishmishlar yurardi. Emishki, allaqaysi boyvachchaning bir kechada, o‘z-o‘zidan og‘zi qiyshayib qolganida uch marta “dam solib” otday qilib yuborgan ekan. To‘qay qishloqlik Sattor cholni qora qurt chaqib olganida, bir o‘limdan olib qolgan odam mana shu mulla Ashur edi. Hosil mirobning qo‘rqqanidanmi yo boshqa sababdanmi, birdan gapirolmay gung bo‘lib qolgan besh yashar nevarasini tilga kiritib yuborgan ham mana shu mulla Ashur”.

Keltirilgan parchadan ma’lum bo‘lyaptiki, Mulla Ashur g‘ayritabiiy kuchga

ega. Bir qarashda hammasi qadim Sharq afsonalari, ertaklariga xos mo‘jizakor shaxs. Xalq orzu-umidlarini amalga oshiruvchi kishidek taassurot qoldiradi. Lekin roviy nutqidagi “emishki” degan kirish so‘zi va “mish-mishlar” degan jumla mazkur tavsifga roviyning o‘zida ham ishonch u qadar qat’iy emasligini bildiradi. Hatto hikoyada buni roviy tilidan ham “ularning qay biri rost, qay biri lof, ajratish qiyin” deya e’tirof ham etiladi. Shunday bo‘lsa-da, nomlari keltirilgan odamlar mullaga boshqacha ixlos ko‘rsatishlari ham bor gap. Ana shu yerda Mulla Ashur haqidagi g‘ayritabiiy va balandparvoz ta’rif-tavsiflar o‘rnini uning shaxs sifatidagi muammolari egallaydi.

Agar voqealar bayonining shu yerigacha mulla Ashur salkam avliyo darajasidagi odamga aylantirilgan va shu jihati bilan u mumtoz an’analarga xos obraz deb qabul qilinishi mumkinligini e’tiborga olsak, bundan buyog‘iga u yangicha qiyofa kasb etadi. “Bir kam dunyo, deganlaridek ko‘pning mushkulini oson qilgan mulla ... o‘z dardiga davo topolmay iztirobda yashardi. U – befarzand edi. Farzandsizlik motivi o‘zbek adabiyotida eng faol motivlardan biri bo‘lib, bu xalq turmush tarzi, dunyoqarashi bilan uzviy bog‘liq hodisa. Muallif bu bilan mulla Ashurning yuqoridagi salkam avliyodek darajasi, komilligi oldiga real hayotiy muammo, og‘riqli dardni qo‘yish bilan uni konkretlashtiryapti. Adiba qahramonini oddiy odam qatori muammolar qurshoviga olib kirgan. Bu, bir tomondan, uni kitobxonga yaqinlashtiradi. Ikkinchi tomondan esa, shunday odamning o‘z mushkulini hal etolmasligi, kitobxonni syujet voqealariga bo‘lgan qiziqishini orttiradi.

Hikoyada mulladagi o‘z hayotidan qoniqmaslik hissiyoti va shu hissiyotga o‘ta darajada e’tibor berilishi natijasida qator psixologik o‘zgarishlar yuz beradi. Avvalo, o‘zini to‘laqonli inson deb his etmasligi oqibatida ruhiyatida yuz bergan kamchilikni to‘ldirishga intiluvchi psixologik hodisa, g‘ayritabiiy sharoit yordamida kamchiligini to‘ldirishga urinish, ayollarining xatti-harakatini tahlil qilish kabi o‘y-fikrlar orqali uning ruhiyatida ma’lum to‘ldiruvchi kompensatorlar ishga tushganday bo‘ladi. Ana shu kuch syujet voqealarining rivojlanishida, mullaning keyingi hayotida o‘ta muhim o‘rin tutadi. Boshqacha aytganda, mullani o‘zining ham to‘laqonli erkak ekanligini isbotlashga undaydi. Xayolida avvalgi xotinining o‘zi ko‘ch-ko‘ronini olib ketib qolganini, bunisi ham shunday mardlik ko‘rsatishini istaydi. Ko‘ringan ayol bilan uchrashish istagi paydo bo‘ladi.

Hikoyada roviy tabiiy yo‘l tutgan. Ya’ni shunday odam oilasiz bo‘lmasligi, bo‘lganda uning ayoli kim ekanligi haqida kitobxon xayolida tug‘ilgan savolga javob tarzida mulla Ashurning xotiniga oid ma’lumot keltiriladi: “Ayoli Xonimbuvi bechoragina, mushfiqqina ayol. Turmush qurganlariga sakkiz yildan oshyaptiki,

erining koʻziga tik qaramaydi. Uyatchan, tortinchoq, gapga noʻnoqroq". Koʻrinadiki, Xonimbuvi mulla obrazining butunlay aksi, mulla dami oʻtkir, soʻzga usta deyishga asos bor, koʻpchilikni taniydi, koʻpchilik ham uni biladi. Xonimbuvi esa gapga noʻnoqroq, uyatchan, tortinchoq. Ayolining bunday ta'riflanishi, avvalo, mulla Ashur obrazining ruhan yolgʻizligiga ishora qilsa, ikkinchidan, taqdiridagi fojia bilan bogʻlashga xizmat qiladi. Shunday duoxon, dami oʻtkir kishi, deb ta'riflanadigan odamning merosxoʻri boʻlmasligi ilohiy taqiqqa ishoradek tuyuladi. Chunki mulla Ashur avval ham Usmon hojining kenja qizi Buvrajab bilan oʻn besh yil yashab, yaxshilikcha ajrashgan. Buvrajab boshqa birovga tegib, bola-chaqali boʻlib ketdi. Mulla Ashurning esa hamon dardi ichida, ikki qoʻli bir tepa boʻlib oʻtib ketyapti. Tasvirdagi ana shu nuqtada mullaning asl maqsadi farzandli boʻlish, ana shu maqsad uning koʻziga ajalni chiroyli juvon shaklida keltirishga sabab boʻladi. Ma'lumki, oʻzbek uchun farzandsizlik oʻlim bilan barobar. Yoshi bir joyga borib qolgan mullaning yana bir juvonga intilishi shu jihatdan mantiqan asosli. Yozuvchi Ashurning dunyoqarashi, tushunchasiga tayangan holda hikoyani ajal har kimga oʻzi chin dildan istagan kimsa qiyofasida keladi, degan qadim aqidaga qurgan. Ayonki, dahriylik qarashlari toʻla hukmron boʻlgan sovet tuzumi vaqtida bunday aqidani badiiy asarga olib kirish mumkin emasdi. Yangi davrda esa yozuvchi qahramon qismatini yangicha rakursda koʻrsatish uchun tasvirda mistikadan ham foydalanadi.

"Voqelikning ijodkor ongida qay tarzda akslanishi uning dunyoqarashiga bogʻliq"[17.387]. Demak, yozuvchi anglagan va ilgari surgan gʻoya, u yashagan davr, borliqni idrok etish, tushunish va izohlash jarayoni kechgan jamiyatga ham koʻp darajada bogʻliq. Bu esa yuqoridagi hikoyada tasvirlangan voqelikka aynan oʻxshash boʻlmasa-da, yaqin hodisa qaysidir davrdagi boshqa gʻoya va mavzularni eslatadi. Shu oʻrinda aytish kerakki, mazkur hikoya va unda ilgari surilgan gʻoya, muammo, mavzular oʻtgan asrning 70-80-yillaridagi hikoyalarda ham uchrashi mumkin. Biroq ulardagi obraz va uning zimmasidagi badiiy-estetik yuk Zulfiya Qurolboy qizi bitigidan jiddiy farq qilgan boʻlardi.

Koʻrinadiki, mulla Ashur obrazi butunlay yangicha qismatdagi shaxs sifatida gavdalangan. Ana shu yerda muallifning qahramon yaratishga doir qarashlari ochila boradi. U xalq afsona, epos, miflarida yashab kelgan bashariy aql bilan izohlash mushkul gʻayrishuuriy hodisani bugungi qarashlari asosida aks ettirgan. Bunda hikoyadagi obraz zimmasiga oʻziga xos yangi badiiy yuk ortilgan. Hikoyada hayotdagi ayrim narsa-hodisalar ilohiy qonuniyat asosida, muayyan bir muvozanatda yuz berishi tasvirlangan. Shuningdek, odamning bir umr orzulab intilgan, umrining mazmuni deb bilgan ideali oʻlim farishtasi qiyofasida namoyon boʻlishi mumkinligi, hayotning sirli va izohlash mushkul jihatlari borligi shu tariqa koʻrsatilgan.

Ayol qiyofasidagi ajal farishtaning dastlabki tasviri quyidagicha: “Ikki o‘t orasida o‘rtanib yurgan kunlarning birida mullaning huzuriga yoshgina juvon bosh egib kirib keldi:

– Tumor qilib bersangiz, degandim ... tirnoqqa zorman... To‘rt qavat quroq ko‘rpacha ustida o‘tirgan Mulla seskanib tushganini o‘zi ham sezmay qoldi” [66]. Hikoyada odatda keluvchi ayollarga bosh ko‘tarib qaramaydigan mulla bu ayolga beixtiyor zimdan ko‘z qirini tashlaydi. Juvonning ovozi dardchil, lekin juda yoqimli ekani qayd etiladi. Hikoyada mulla Ashur va uning qarshisidagi ayolning dardi birligiga urg‘u beriladi. Ikkalasi ham tirnoqqa zor, ikkalasining ham ichi dardga to‘la, ikkalasining ham avvalgi oilasi buzilgan. Buning ustiga ayol kelgach, mulla seskanib ketadi. Chunki uning ruhiyatida ayol qiyofasidagi o‘lim farishtasini his etish yuz bergan-u, mulla buni aqli bilan anglamaganligiga ishora qilinadi. Asarda ayol qanday ketganini u sezmay ham qolishi tasvirlanadi: “Mulla Ashur harchand o‘zini chalg‘itishga, fikrini jamlashga urinmasin, uddasidan chiqolmaydi. Ikki marta uylangan bo‘lishiga qaramay, mulla bunday holga birinchi daf’a tushishi edi. O‘z ko‘nglida qandaydir besaranjom bo‘lib qolganday edi. Va bu besaranjomlikning oqibati yaxshilikka olib kelmasligini g‘ayrishuuriy ravishda his etgan mulla kechga borib xonasiga kirdi-da, eshikni ichkaridan qulfladi. To‘rda, qiblaga qaragan burchakka yozilgan joynamoz ustida o‘tirib, ko‘zlarini yumgancha tilovat qila boshladi. Uch kun o‘tgach, ozib, rang-quti o‘chgan, lekin gunohlardan forig‘ bo‘lgan mulla hovliga chiqdi”. Shu o‘rinlarda mulla Ashurning ahvoli ruhiyati va undagi o‘zgarishlar ishonarli aks ettirilgan. Muallif voqeani bayon qilar ekan mullaning e’tiqodi, undagi ikki kuch: Rahmon va Shayton kurashini ko‘rsatadi. Asarda inson ko‘ngli Rahmon va Shayton uchun kurash maydoniga aylanishi haqidagi qadim mumtoz adabiyotdagi azaliy yondashuvga rioya qilingani ko‘rinadi.

“Mulla Ashur ko‘ziga o‘sha ayol ikkinchi marta tongda ko‘rinadi: Bir tutam tun ming azob bilan o‘tdi. Tong g‘ira-shirasida bostirmada tahorat olib bir qo‘lida obdasta, ikkinchisi bilan belbog‘ini yelkasiga tashlagancha orqasiga qaytayotganda mullaga kimdir o‘zini kuzatayotgandek tuyulib, beixtiyor yurishdan to‘xtadi, ortiga o‘grildi. Zingil solib, yon-verini kuzatarkan, bexosdan huv narida, chorbog‘ning yo‘lga tutash yerida, yog‘och panjaraga suyangancha, ma’yus jilmayib turgan o‘sha ayolga, o‘sha battolga ko‘zi tushib, negadir seskanib ketdi”. Hikoyada mulla Ashurning ikkinchi bor seskangani tasvirlanadi. Hikoyada mullaning ko‘ziga ko‘ringan ayol kutilmaganda, eridan xavotir olib kelib qolgan Xonimbuvining ko‘ziga ko‘rinmagani, bu holdan mullaning hayajonga tushgani ta’kidlanadi. Asarda odamning shaytoniy yo‘lga kirish jarayoni juda batafsil va ishonarli ko‘rsatiladi. Notanish ayol unga goh chorbog‘ yonida, goh yo‘l ustida, goh uy yonida tez-tez

uchraydigan bo‘lib qolgani, lekin mulla, avvalgidek, poklanish uchun ibodat qilmayotgani, o‘z holidan uyalmayotgani aks ettiriladi.

Hikoyada qahramon tabiatida ro‘y berayotgan evrilishlar bosqichma-bosqich ko‘rsatiladi. Chunonchi, odatda, besh vaqt namoz o‘qimasa, yordam so‘rab kelganlarga dam solmasa vujudini ezadigan allaqanday noma’lum kuch ham yo‘qolgani, har doim o‘qiydigan otameros muqaddas kitobni ham qo‘lga olmay qo‘ygani tasvirlanadi. Borgan sari mullaning butun vujudini allaqanday kuch egallaydi, o‘zini yosh va qushdek yengil his etadigan bo‘ldi. Shu yerda diqqat qilinsa, rahmoniy tushuncha va e’tiqod o‘rnini sirli ayol egallab olayotgani ayon bo‘ladi. Hikoyada mulla Ashurning sirli ayolga intilishida har qanday insonga xos nafs oldidagi ojizlik ochib beriladi. Farzandsizlik, boshqalarday bo‘lishga intilish, o‘zidan qoniqmaslik mullaning ruhiyatida katta o‘zgarishlar keltirib chiqaradi. “Mulla tush ko‘rdi. Tushida o‘sha sohibjamol bilan kimsasiz bir yerlarda qo‘l ushlashib (ko‘ngil qursin!) yurganmish. Goh yorug‘, goh qorong‘u, vahimali yo‘llardan o‘tganmish. Ilon izidek bosh-keti ko‘rinmaydigan, tor yo‘lning ikki chetidagi xaroba uylarning siniq derazalaridan kimlardir qarab turgandek, allakimlardir qah-qah urib kulayotgandek tuyularmish. Yam-yashil maysalar ustiga tiz cho‘kkan ayol qo‘lidan tortqilab, uni ham o‘tirishga undabdi. Yuragi hapqirib, hayajonlangan mulla botinib-botinmay ayolning qarshisiga tiz cho‘kibdi. Mayin qo‘llari bilan yuzlarini silayotgan ayol shamday erib borayotgan mullaning ko‘ksiga bosh qo‘yibdi...”.

Mullaning ichki olamida yuz berayotgan o‘zidan qoniqmaslik, o‘zining tabiiy imkoniyatlarini sinab ko‘rish va boshqalardan kam emasligini isbotlashga urinish undagi diniy tarbiya va ibo-hayodan ustun kela boshlaydi. Unda har bir inson mohiyatida mavjud bo‘lgan hayotiy tamoyil – shaxs sifatidagi faoliyatining tizimli asoslari o‘zgara boshladi. Bu esa yo‘qlikka eltadigan yo‘l ekanligi asar yakunida ochib berilgan.

Hikoyadagi yana bir jihatga diqqat qilish lozim. Mulla Ashur xayolidagi ayol bilan Xonimbuvining zimdan kurashi kechadi. Ayol mullaning xayoli, ongi, ruhiga qanchalik kirib borgan sari Xonimbuvi eridagi o‘zgarishlardan shuncha xavotirga tusha boshlaydi. Hikoyada Xonimbuvining aksariyat o‘zbek ayollari kabi “...erining yuziga tik qaramaydi. Uyatchan, tortinchoq, gapga no‘noqroq” ekani tasvirlangan. U o‘z ichki tuyg‘ularini tan mahramidan ham yashirishga o‘rgangan ayol. Mulla Ashur begona ayolga tumor qilib bergach, uch kun uzluksiz tilovat qilib o‘tirgani, uning ovqatlanmagani va gapirmaganidan xavotirga tushib, ana shu uch kunlik xilvat o‘tirish tugaganini ko‘rgan ayol holati: “Uni ko‘rib, xursand bo‘lib ketgan Xonimbuvi oshxona tomonga yugurdi” tarzida aks ettiriladi. Bu yerda uch kun dunyodan uzilgan erini ko‘rgan ayolning xursandligi ko‘rsatilgan. Uning ovqat yemaganidan tashvishga

tushib, darhol oshxonaga yuguradi, u yerdan non, qand-qurs o‘ralgan guldor dasturxonni ko‘tarib chiqadi.

Mulla Ashur yuz ellik yildan beri obod bo‘lib kelgan, qishloq chetidagi tepalikdagi qo‘rg‘oni yonida xayol surib o‘tirib qoladi. Shu yerda o‘tirganda, xotini ikki marta keladi. Birinchi kelganda, indamay yana qaytib ketadi, keyingi kelganda

– Ovqat sovib qoldi, - deya qistalang qilsa-da, mullaning joyidan jilgisi kelmadi.

– Sen ichaver, men keyin, sal turib boraman, - deb xotinini jo‘natib yubordi.

Xonimbuvi hayron bo‘lgancha, o‘girilib ortiga qaray-qaray, hovliga kirib ketdi”. Parchada Xonimbuvining eriga mehr-u sadoqati, hurmati baland ayol ekanligi bilan birga undagi o‘zgarishlardan xavotirlari *(o‘girilib ortiga qaray-qaray)* tasvirlangan. Mulla Ashur ertasiga uyining oldidagi uzun va yo‘g‘on xodada o‘tirganda yana o‘sha ayolni ko‘radi. Diqqat qilinsa, u uch kun tilovat qilib, xayoliga begona ayolni keltirgani uchun tavbalar qilganidan keyin sal o‘ziga kelgandek edi. “Shundoqqina yo‘l chetidan tamanno bilan o‘tib ketayotgan ayolga ko‘zi tushib qoldi. Ayol mullaning nigohini his etdi shekilli, yalt etib qarab qo‘ydi, mulla Ashur qattiq seskandi. Ayol unga tanishdek tuyuldi. Yo kimgadir o‘xshatdimi?! Ie, ha, esiga tushdi, bu axir ... Tunov kuni: “Tumor qilib bering”,- deb kelgan ayol-ku! Mullaning a’zoyi badani jimirlab ketdi. Hayajondan ko‘zlarini olib qochdi, ayol nariroq borib ortiga o‘girildi. Xiyol jilmaygandek bo‘ldi-yu, yana yo‘lida davom etdi. Mulla Ashurning yuragi hapqirib ketdi. U zo‘r berib urinmasin, ayolni ko‘zdan yo‘qotmaslik uchun uning ortidan qarab qolmaslikning ilojini qilolmadi. Shu yerda ayol Oqberdining uyiga kirib ketganini ko‘radi. Unda nega “tirnoqqa zorman” , degandi-ku deya ichki so‘roq ostida qoladi. Shu yerda u o‘zini kimdir egallab olayotganini his eta boshlaydi. Shuncha toat-ibodat havoga uchganini, miyasi g‘ovlaganini his etadi. Hatto o‘z-o‘zidan nafratlanib ketadi. Shoshib turib, ichkariga kiradi, eshikni zichlab yopib, tambalab qo‘yadi. Xosxonasiga kirib bobosi buzruk mulladan qolgan otasiga, undan mullaga meros qolgan qadimgi kitobni o‘qishga tutinadi. Lekin uning xayolidan boyagi ayol ketmaydi. Ikki-uch sahifa o‘qisa ham xayoliga hech narsa kirmaydi. Yuragi siqilib, xotinini yo‘qlaydi. Chunki allaqanday kuch uning fikr-u, xayolini egallab borayotgan edi. Ana noma’lum kuchga qarshi kurashish uchun o‘z kuchi kamlik qildi. Shuning uchun Xonimbuvini chorlaydi. “Ishkom ostidagi so‘rida olmaqoqi qilayotgan Xonimbuvi irg‘ib o‘rnidan turdi. Lippasiga qistirib olgan etagini tushirib, shosha-pisha ust-boshini qoqdi. Ildamlik bilan deraza yoniga kelarkan, erining zahil basharasiga ko‘zi tushib, yuragi orqaga tortib ketdi.

– Tinchlikmi?!

– Poklanib, keyin mening yonimga kir! - deb buyurdi mulla.

Hikoyaning bu o‘rnida otameros kitobni o‘qish va oldingiday yashashga zo‘r berib urinayotgani, uning o‘y-fikrlarini egallab borayotgan g‘ayritabiiy kuchga qarshi kurashmoqchi ekani ko‘rsatiladi. To‘g‘ri, uning rangi zahil, uning kuchi tugab, rangi o‘chib borardi, lekin hali ezgulikdan umidini uzmagan edi. Shuning uchun Xonimbuvini chaqirdi, lekin u ham kitob o‘qishni unutganligi uchun uni ham quvib soladi va “o‘sha kuni “loladek qizarib turgan” ayolni ko‘rganidan buyon hayajonidanmi, ehtirosdanmi titrab turgan yuragi endi g‘azab o‘tida yona boshladi”.

Ta’kidlash kerakki, zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida inson ruhiyatidagi o‘z-o‘zidan qoniqmaslik, o‘z hayotiy a’molini bajarishga intilish va boshqa qator umuminsoniy vazifalar shaxs psixologiyasida e’tiqodiy odob-axloq tushunchalarini ham o‘zgartirishga qodir darajada yangicha qiyofa kasb etishi mumkinligi aks ettirilgan. Bir qarashda bu katta fojia, hayot tugashi bilan barobar hodisa, biroq unda inson mohiyati va ulug‘vorligi ham yashirin ekanligini kuzatish mumkin. Ana shu xususiyati bilan mulla Ashur sirlilik va ulug‘vorlik kasb etadi.

Mazkur hikoyada mulla Ashurning ruhiy dunyosini teran tasvirlash orqali muallifning badiiy mahorati namoyon etilgan. Mulla Ashurning farzandsizligi va bu dardiga davo istashi, ko‘ziga ko‘ringan ayol timsolida hayotda o‘zi erisholmagan baxtga erishishga intilishi, murakkab ichki kurash tasviri zamirida odamning tabiatidagi haqiqatni yaxlit tushunish yotadi. Hayot kishini sevishga, iztirob chekishga, hayot ma’nosini izlashga, o‘zini kimgadir kerak bo‘lishi va avlod qoldirishini baxt deb bilishga o‘rgatdi. Bularning hammasi birgalikda inson ehtiyojlarining umumiy fonini tashkil etadi. Shu kechinma, hodisa, voqealar qurshovida insonning ulug‘vorligi va buyukligi ko‘rinadi. Unda insonning olam bilan yaxlitligi, olam nuqsonli bo‘lganda, odam ham nuqsonli, olam benuqson bo‘lsa, odam ham benuqson bo‘ladi, degan yagona tamoyil aks etgan.

Zulfiya Qurolboy qizi ijodining yetakchi xususiyatini belgilovchi yana bir jihat, uning hikoyalarida qahramonga xos xususiyatlar personajlar ichki olamini aniqlashtiruvchi, uni haqiqat sari undovchi, chorlovchi ichki dinamikasi borligidadir. “Nima bo‘lganda ham xarakter yaratish – barcha realistlar uchun umumiylik kasb etadi va ochiq realistik tamoyillar – xarakterni uning turmush sharoitlariga muvofiq tasvirlashni talab etadigan ijtimoiy va tarixiy determinizm orqali aniqlanadi”.[12.16] Yuqoridagi hikoyada adiba personajni o‘ziga xos alohida muhitda tasvirlaydi. Mulla Ashur aslida farzand ko‘rolmasligini biladi. Biroq baxt va baxtsizlik dialektik bog‘liqlikda mavjudligini, o‘zaro hamkorlikda, go‘yo kelishib namoyon bo‘lishdek “o‘zaro shartlanganlik bor” bo‘lgan hayotiy aqida doirasidan chetga chiqolmaydi. Shu bois o‘zi intilgan ayol timsolida ajalga jonini topshirishidan boshqa yo‘l

topolmaydi. Shu tariqa hayotning ikki qutbi birlashib, yozuvchi uqtirgan “ajal – farishta” degan qonuniyat tasdiqlanyapti. Eng qadimgi ibratli voqea takrorlanyapti. Zero, “agar insoniyat kechmishini bir nigoh bilan qamrab, yaxlit holda idrok etsak, rad etib bo‘lmas bir qonuniyat amal qilib kelayotganini ilg‘ash mumkin: qayerdaki yer yuzidagi hayot tugagunga qadar bani basharga ibrat bo‘larli bir narsa-hodisa mavjud bo‘lsa, qayerda tafakkur va yaratuvchanlik izlari muhrlangan bo‘lsa, tarix uni o‘z to‘fonlarida g‘arq etib tashlamagan”[18.6],- degan fikr bejiz aytilmagan. Hikoyada yozuvchi ilgari surgan ijtimoiy-estetik va psixologik qarashlar qisman mistik, qisman realistik yo‘sinda namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, maqolada qo‘yilgan ilmiy muammo yuzasidan mulohazalarimiz yakunida shuni qayd etamizki, “ayol qismati, uning ruhiyati” uzoq tarixiy asoslarga ega. Har bir davr uni o‘zgartiradi, bu esa ma’lum ijtimoiy-iqtisodiy asoslar, omillar ta’sirida yuz beradi va badiiy adabiyotda o‘ziga xos izini qoldiradi. Ana shu “iz” badiiy adabiyotdagi ayol obrazini yaratishda asos bo‘ladi. Ayol botini, uning borlig‘i, qismati va ruhiy holatini qalamga olinishi milliy tafakkurda hech bir ijodkorni, ayniqsa, ayol hikoyanavislarni befarq qoldirmagan. Markaziy g‘oyasi va qahramonlari ayolni tashkil etgan badiiy asarlar esa bugngi kundagi tadqiqotlarga zamin bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Adabiyot nazariyasi. I jild. – Toshkent: Fan, 1978. – 416 b.
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy-tarixiy jarayon. II jild.–Toshkent: Fan, 1979. II jild. – 249 b.
3. Adabiy turlar va janrlar. Uch tomlik. 1-tom.–Toshkent:Fan, 1991. – 382 b.
4. Adabiy tur va janrlar (tarixi va nazariyasiga oid). 2-jild. Lirika. – Toshkent: Fan, 1992. – 248 b.
5. Rahimjonov N. Bugunning qahramoni kim. O‘zbek adabiy tanqidi. - Toshkent: Turon-Iqbol. 2011. - B. 291
6. Ulug‘ov A. Qalb qandili. Adabiy-tanqidiy maqolalar. Adabiy portret. Adabiy-tanqidiy ocherk. - Toshkent: Akademnashr, 2013. - B.222-223
7. Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti manzaralari: maqolalar to‘plami. - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2014. - B. 3 67.
8. Jon Golsuorsi. Olti adibning qiyofasiga chizgilar / Jahon adiblari adabiyot haqida. - Toshkent: Sharq, 2004. - B. 46.
9. Rahimov A. O‘zbek romani poetikasi (syujet va konfilikt). Filol. fan. dok. ... diss. avtorefer –. Toshkent:1994. –B. 10. Hoshimov O‘. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. –T.: Sharq nashriyot-matba aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2008. 179 b. 11. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. –T.: O‘qituvchi, 1980. –B. 193
10. Солижонов Й. Ҳақиқатнинг синчков кўзлари. - Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009. - 228 б
11. Qurolboy qizi Z. Qadimiy qo‘shiq. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. –B. 345-350.
12. Хомякова О.Р. Художественный метод: концепция личности. Русский язык и литература. –Б.: 2012. – № 5. – С.13–
13. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. –T.: Lesson-press, 2004. – B. 31.

14. Normatov U. Nafosat gurunglari. – T.: Muharrir, 2010. – B. 289.
15. Yo‘lchiyev Q. Postmodernist adiblar. –Farg‘ona: 2011. –B. 49.
16. Hamroqulova X.Romanlardagi hayot va o‘lim talqinining adabiyotshunoslikda o‘rganilishi // O‘zbek adabiyoti: ta’sir va tipologiya. - Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2013. – B. 118.
17. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyev M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2010. –B. 387.
18. Afoqova N. Mutolaa. – T.: Akademnashr, 2011. – B. 6.